ISSN: 2181-3906
2024

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 3 / ISSUE 6 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

PROFESSIONAL TA'LIMNI ZAMONAVIYLASHTIRISHDA BOSHQARUV JARAYONLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI VA RAQAMLI KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMINI TASHKIL ETISH.

Eshbo'tayev Ulug'bek Erkinovich
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti.

https://doi.org/10.5281/zenodo.12528270

Annotatsiya. *Professional ta'limni zamonaviylashtirishda boshqaruv jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari va raqamli kasb-hunar ta'limi tizimini tashkil etishda doimiy muammolarga duch kelmoqda. Professional ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonlarini loyihalash va boshqarish yondashuvini o'zgartiradigan innovasion texnologiyadir.*

Ushbu maqola prof-emis.edu.uz ***yagona raqamlashgan Professional ta'lim tizimi platformasi*** *joriy qilish va uni ta'lim muassasalari faoliyatiga tatbiq etishni o'rgatadi va jarayonning afzalliklari, qiyinchiliklarini muhokama qiladi.*

Kalit so'zlar: *Kasb-hunar maktablari, Kollejlar, Texnikumlar, QR-kod, platforma, emis, fan moduli, prof-emis.edu.uz*

METHODS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT PROCESSES WHEN MODERNIZING VOCATIONAL EDUCATION AND ORGANIZING A DIGITAL VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM

Abstract. *In the context of modernization of vocational education, constant problems arise in the use of digital technologies in the processes of management and organization of the digital vocational education system. Digitalization of the vocational education system is an innovative technology that changes the approach to design and process management. This article describes the implementation of a unified digital platform of the Vocational Education System prof-emis.edu.uz and its implementation in the activities of educational institutions, and also discusses the advantages and difficulties of the process.*

Key words*: vocational schools, colleges, technical schools, QR code, platform, emis, scientific module, prof-emis.edu.uz*

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССАХ УПРАВЛЕНИЯ И ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ЦИФРОВОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ МОДЕРНИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация. *В условиях модернизации профессионального образования постоянно возникают проблемы с методами использования цифровых технологий в процессах управления и организации системы цифрового профессионального образования.*

Цифровизация системы профессионального образования – инновационная технология, меняющая подход к проектированию и управлению процессами. В данной статье рассказывается о внедрении единой цифровой платформы системы профессионального образования prof-emis.edu.uz и ее внедрении в деятельность образовательных учреждений, а также рассматриваются преимущества и трудности процесса.

Ключевые слова: *профессиональные училища, колледжи, техникумы, QR-код, платформа, emis, научный модуль, prof-emis.edu.uz*

KIRISH: Professional ta'lim tizimini raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish va resurslarni optimallashtirish hal qiluvchi rol o'ynaydigan murakkab muhitda ishlaydi. Yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan ta'lim va ishlab chiqarishni boshqarish usullarini takomillashtirishga intilmoqda. Ushbu maqolada biz Professional ta'lim tizimini prof-emis.edu.uz **yagona raqamlashgan Professional ta'lim tizimi platformasi**ni yaratish va amaliyotga qo'llash sifatida evolyusiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 maydagi «Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 76-son PF (1) Raqamli texnologiyalar sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bilan bog'liqdir. Bunda, davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirish hamda hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu texnologiyalarni Professional ta'lim muassasalari faoliyati uchun samarali yo'lda qo'llash bo'yicha birinchi qadam sifatida qabul qilindi.

MAQSAD: Professional ta'lim tizimini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali boshqaruv faoliyati, iqtisodiy faoliyat, malaka oshirish, ta'lim jarayonini, amaliyot jarayonlarini to'liq raqamlashtirilib prof-emis.edu.uz platformasiga birlashtirish-**yagona raqamlashgan Professional ta'lim tizimi platformasi** joriy qilinadi.

Ta'lim muassasalari faoliyatini raqamlashtirish (EMIS)

- Boshqaruv faoliyati: 1. Boshqaruv jarayonlarini tashkil etish; 2. Xodimlar boshqaruvi; 3. Ijtimoiy rivojlanish boshqaruvi; 4. Elektron hujjat aylanish tizimini (edo.ijro.uz) joriy etish.
- Iqtisodiy faoliyat: 1. Moliyaviy va buxgalteriya hisobini yuritish; 2. Tijoratlashtirish faoliyati; 3. Ish haqi va mehnat faoliyati.
- Marketing faoliyati: 1. O'quv jarayoni sifati; 2.Ta'lim marketingi; 3. Xalqaro aloqalar.
- O'quv jarayoni: 1. Elektron jurnal va o'quvlar reytingi; 2. O'quv va metodik jarayonlarni boshqarish; 3. Resurslarni boshqarish.
- Amaliyot jarayoni: 1. Ish beruvchilar bilan hamkorlik; 2.Ish bilan ta'minlash monitoring.
- Xo'jalik faoliyati: 1. Mexnat muxofazasi ta'minoti; 2. Texnik ta'minot; 3. Transport

PLATFORMA NIMA BERADI?

Pedagoglarga

- dars ishlanmalari, taqdimotlar, baholash materiallari va texnologik xaritalar, metodik ishlanmalardan foydalanish;
- kasbiy faoliyat natijalarini (raqamli portfoliosini) tizimga kiritib va doimiy yangilab borish orqali malaka oshirish shakllari (muqobil, mustaqil hamda masofaviy) orqali malaka oshirish kursini o'zlashtirish;
- fan (modul) bo'yicha dars beradigan respublikadagi o'qituvchilar reytingini kuzatib borish;
- fan (modul) bo'yicha malakali o'qituvchilarning eng ilg'or metodik ishlanma va tajribalarini o'rganish hamda o'z-o'zini rivojlantirib borish;
- malaka oshirish va qisqa muddatli kurslarda o'qiganlik bo'yicha onlayn (QR kodli) sertifikat-larni yuklab olish;
- masofadan malaka oshirish;

➢ o‘z kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib namunali raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;

➢ tizimga oid yangiliklar bilan tanishib borish imkoniyatlarini beradi.

Ta’lim muassasasiga

➢ onlayn rejimda ta’lim muassasalari uchun tayyorlanadigan kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim dasturlari va metodik mahsulotlaridan faydalanish;

➢ ta’lim muassasasining shaxsiy sahifasi va pasportlarini shakllantirish;

➢ ta’lim yo‘nalishlari, kasb va mutaxassislik fanlari bo‘yicha dars beradigan o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish;

➢ pedagoglar portfoliolar bazasiga ega bo‘lish;

➢ xodimlarga qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish shaffofligini ta’minlash;

➢ o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini monitoring qilib borish;

➢ pedagog xodimlarni innovasion raqamli ta’lim resurslari bilan qurollantirish;

➢ rahbar va pedagog xodimlarning indiviudal rivojlanish trayektoriyasini doimiy monitoringini olib borish;

➢ xodimlarning malaka oshirish natijalarini ko‘rib turish;

➢ ta’lim muassasadagi ilmiy salohiyatni o‘zgarib borish dinamikasini ko‘rish imkoniyatlarini yaratadi.

Hududiy boshqarmalarga

➢ professional ta’lim muassalari uchun yaratilgan ta’lim dasturlari va o‘quv-metodik ta’minotlardan foydalanish;

➢ hududdagi o‘qituvchilar reytingini aniqlash va tajribali pedagoglarni tanlab olish;

➢ pedagog xodimlarning individual riojlanish trayektoriyasi hamda reyting darajasiga qarab davlat mukofotlariga tavsiya etish;

➢ hududdagi ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbar va pedagog xodimlar to‘g‘risida (soni, mutaxassisligi, reytingi, ustoz-shogird faoliyati va boshqalar) ma’lumotlarga ega bo‘ladi;

➢ sohada amalga oshirilayotgan ishlar, natija va yutuqlar haqida doimiy ma’lumotlarga ega bo‘lib borish imkoniyatlarini taklif etadi.

prof-emis.edu.uz yagona platformasi afzalliklari va muammolari:

1. Afzalliklari: loyihani aniqligi, ta’lim jarayonlari samaradorligini oshirish, ta’lim va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish.

2. Qiyinchiliklar: xodimlarni o‘qitish zarurati, raqamlashtirishni amalga oshirish uchun yuqori xarajatlar, mavjud tizimlar va ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiyalash.

XULOSA: prof-emis.edu.uz yagona platformasini joriy etish ta’lim jarayonlarini optimallashtirish va professional ta’lim muassasalar samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Biroq, ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish nafaqat texnik bilimlarni, balki ta’lim muassasa madaniyati va salohiyatli kadrlarni tayyorlashni talab qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.05.2023 yildagi PF-76-son;
2. https://prof-emis.edu.uz
3. https://www.lex.uz/acts/2036907
4. https://e-edu.uz/webtizimlar